

TALABALARING O'QUV-IJODIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Toshtemirova Gulnora Ayubjonovna.

Islom Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali
mashinasozlik texnologiyasi kafedrasи assistenti

ANNOTATSIYA

Talabalarning o'quv-ijodiy faolligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yaratish haqida so'z yurtiganda prezident Sh. Mirziyoyevning . Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asarida keltirilgan fikrlarini, jahondagi texnika-texnologiya, ilm-fan rivojlanishidagi raqobatning keskinlashib borishi, yetuk kadrlarga bo'lgan talab ortib borishi va bu raqobatda respublikamiz o'z o'rnini saqlab qolishi uchun qilingan bir qator muhim ishlar mamlakatini ilm-fan yutuqlari, yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinishi, yangilanishi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi qayta tiklanganligi va takomillashtirilganligi, ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlar faoliyati qayta tashkil qilinganligi, ilmiy laboratoriyalar zamonaviya asbob-uskunalar bilan jihozlanganligini e'tirof etishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

KALIT SO'ZLAR: pedagogika, kompyuter texnologiyasi, ilovalar talabalar, auditoriya, dasturlar.

Talabalarning o'quv va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi, bilim olishi uchun "Ta'lim to'g'risida"gi qonuning 6-moddasida ta'lim tizimining tarkibi belgilab qo'yilgan, ular davlat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim standartlarini, davlat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim talablarini, o'quv rejalarini va o'quv dasturlarini, bularni amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini, ta'limni sifatli bo'lishni baholash orqali amalga oshiruvchi tashkilotlarni, ta'lim tizimining faoliyat olib borishi va rivojlanishini ta'minlashda zarur bo'ladigan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarini, ta'lim yo'nalishidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning qaramog'idagi muassasalarini o'z ichiga oladi.

YECHIMLAR VA TAVSIYALAR:

Shuningdek talabalarning ta'lim olishi, o'quv faoliyatini va ijodiy faoliyatini olib borishda, o'zlarining o'quv - ijodiy faolligini rivojlantirish barobarida bilim, malaka, ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun yuqorida ko'rsatilganlarni ijrosini ta'minlash



qanday, qaysi tartibda va kimlar tomonidan amalga oshirilishi ham quyidagicha, yani oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayoniga o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini tadbiq qilish mas’ul ta’lim tashkilotlari tomonidan amalga oshirilish, ishlab chiqilgan o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish jarayonida zamonaviy, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, ta’lim berishning innovatsion shakllari va usullarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash qat’iy belgilab qo‘yilgan.

Tadqiqot ishida rejalahshtirilgan talabalarning o‘quv-ijodiy faolligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari paragrafi doirasida o‘rganish va tahlil natijalarining qonuniylik tomoni yuqorida keltirib o‘tildi. Endi ilmiyilik tomondan yondashamiz ya’ni bizgacha olib borilgan tadqiqot ishlari bo‘yicha tanishish, o‘rganish va tahlil natijalarini xulosa sifatida yoritib berishga harakat qilamiz.

Jahon amaliyotida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tadqiqot olib boruvchilarning kelajakdagi kasbiy va kreativ kompetentligini rivojlantirish, individual kamolotini shakllantirish va ta’minalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, fanlarga oid motivatsion fikrlash doirasini kengaytirish tuzilmasini modernizatsiyalash, pedagogik va psixologik sharoitlarini aniqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda baholash mexanizmini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar ishlari olib borilmoqda.

Pedagogik shart-shroit bo‘lishi uchun albatta pedagogik jarayon bo‘lishi shart. Bugungi kunda pedagogik jarayon o‘zida bir nechta o‘zaro bog‘liqlikdagi jarayonlarni, ta’lim, tarbiyalash, o‘qitish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, rivojlanish, ruhiy tayyorgarlikni qamrab oladi. Pedagogik jarayon ishtirokchilarining o‘zaro ta’siri pedagogikaning ob’ekti bo‘lsa, predmeti esa - pedagogik jarayonning maqsadi, mazmuni, yo‘llari hamda pedagogik texnologiyalari hisoblanadi.

XULOSA:

Bunday ta’lim jarayonining amaliy psixologiyasi o‘quv jarayonini loyihalash va tuzatish, bunda fan bo‘yicha ma’lum miqdordagi bilim va ko‘nikmalarni egallash o‘rganishning asosiy maqsadi sifatida emas, balki faqat talabaning shaxsiy, intellektual va ijodiy salohiyatini maksimal darajada ochish vositasi sifatida qaraladi.



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st July - 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 bet. 50 - bet
- 2.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI (2023 yil 30 aprelda O‘zbekiston Respublikasi referendumida qabul qilingan)
- 3.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TA’LIM TO‘G‘RISIDA QONUNI. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma’qullangan
4. Askarov A.D. Algorithmic aspects of the variability of the content of education in Higher education // Journal of Positive School Psychology, 2022, P.1639-1650
- 5.Адизов Б.З. Эксперименты как моделирование лабораторной работы в учебном процессе// Молодой учёный, 2012. Т.4. Стр. 389
- 6.Qodirov M. E Ishlab chiqarish-texnologik kompetentlik tushunchasi va uning mazmun mohiyati //so’ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 6-jild 11-son respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.11.2023
- 7.Toshtemirova S. A. The need to improve social competences in future teachers// Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal: Vol. 2022 : Iss. 1 Article 4.
- 8.Анохина Н.Б. Компетентностный подход в системе профессиональной подготовки учителя// Психология и педагогика: Методика и проблемы практического применения.2017. №55.